

**ALPOMISH MILLATIMIZ G'URURI, TARIXIMIZ KÒZGUSI VA  
QADRIYATLARIMIZ NEGIZIDUR**

*Ilmiy rahbar: Ingliz tili va adabiyoti fakulteti*

*òqituvchisi: T. M. Gapparova*

*Yozuvchi: Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs*

*talabasi Xolmirzayeva Dilnozaxon*

**Annotatsiya:** Siz bu maqolani òqish orqali Alpomish dostoni va uni xalqimizning qalbidan qay darajada òrin olgani, asarda ba'zi ziddiyatlar va o'g'ir ahvolda qolgan Boysarining qizi Barchinning aql-u zakovati bilan hammasini bartaraf qilganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bòlasiz.

**Tayanch tushunchalar:** Surxon, baxshi, Qalmoq, alplar, poyga, merganlik, yoy tortish, kurash, dòstlik, òtmishga sayohat, Suhayl kampir.

Xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon kòzlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bòlsa bu yòlda jonini ham fido qilishga tayyor bòlgan azamat òg'lonlarmiz - bugungi Alpomishlarning ma'naviy qiyofasini kòramiz. Ishonamizki har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi.

*Òzbekiston Respublikasi 1-prezidenti*

*ISLOM KARIMOV*

Alpomish Xalqimizning yillar davomida o'g'izdan o'g'izga, avloddan avlodga meros bòlib òtib kelayotgan durdonasi hisoblanadi. Unda xalqimizning mardligi, jasurligi, tanti hamda or-nomusi uchun jonini fido qilishi tasvirlanadi. Asar Surxon vohasida yaratilgan nusxasi òquvchilarga havola qilingan va yurtimizning istalgan kutubxonasidan topishingiz mumkin. Asarning ta'sirchanligini oshirgan jihat bu - uni baxshilar tomonidan kuylanishidir. Baxshilar qòliga biror bir musiqa asbobini olib, uni kuyga solib chiroyli ohang bilan kuylaganda, har qanday odam dunyo tashvishlarini unutib, òzini boshqa bir olamga tushib qolganday his qiladi gòyo. Bilamizki, Fozil Yòldosh baxshi tomonidan yozib olingan nusxasi maktab, litsey darsliklarida berilgan bòlib, kòpgina kitobxonlar shu darsliklarda berilgan parchalar orqali Alpomishga bòlgan qizishi oshmoqda. Bir parcha òqigan odam voqealar rivojiga qiziqib qolib, uning ta'sirida ajib hislar o'g'ushiga tushib qolishi hech gap emas. Bunday insonlar albatta bu kitobni tòliq variantini òqishni xohlab qoladi. Shu sabab bòlsa kerakki, qancha yillar òtsa ham òz qard qimmatini yòqotmay qòldan qòlga òtib kelmoqda.

Asar turli tòqnashuvlar va ziddiyatlar asosida qurilgan bòlib, undagi personajlar òzining takrorlanmas xarakteri bilan òquvchiga zavq bağishlaydi. Masalan aka-uka bòlgan Bòybòri va Boysari xarakterlarida qarama qarshiliklar mavjuddir. Bir otaning farzandlari bòlishiga qaramay, ikki xil tabiatga ega. Boybòri va Boysarini bir chipron tòyda izza qilishganda ularning tabiati yaqqol namoyon bòladi. Bundan tashqari, Boybòrining ògli Hakimbek va Boysarining qizi Barchinning òrtasidagi munosabatlar qizğın tus olib kitobxonni òylantirib qòyadi. Boysari bilan Boybòr òrtasidagi nizo farzandlarining ham ajralishiga ham sabab bòladi. Qalmoqlar yurtiga kòchib borgan Boysari ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Ulardan biri: qizi Barchinning yetilishi va gòzalligi oshib, unga òsha yerdagi kallardan ya'ni Suhayl kampirning yeb tòymas, tanasi suv kòrmagan devdek ògillaridan sovchi kelishi edi. Asarda keltirilishicha, Toychi viloyatida Qalmoq muzofotinda bir Suhayl degan kampir bor edi. Juda haddili zo'r kampir edi, bu kampirning yetti o'g'li bor edi:

- Ko'kaldosh;
- Ko'kaman;
- Ko'kqashqa;
- Boyqashqa;
- Toyqashqa;
- Qo'shquloq;
- Qorajon.

Bu alplar Barchinga sovchi qòyadi, ammo Barchin ularni istamaydi. Otasi Boysari bundan juda xavotirga tushadi. Bir tomonda qizining baxti bòlsa, Ikkinchi tomonda xalqining tinchligi turardi. Shunda dono Barchin ularga 4 shart qòyadi, Kim shu shartlarni bajarsa shunga tegaman deya. Ular quyidagicha edi:

1. Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.  
Boboxon tog'idan poyga qilaman,  
Oti ildam boybachchaga tegaman.
2. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,  
Men tegaman shul yoyandoz polvonga.
3. Ming qadimdan tanga pulni urganga,  
Men tegaman shul qirag'ay merganga.
4. Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,  
Men tegaman nor bilakli polvonga<sup>1</sup>.

Bu xabar Alpomishga ham yetib boradi va u ham qarindosh uruğlarini ham sevgilisi Oybarchinni qutqarish hamda tanlovda g'olib bòlish uchun yòlga chiqadi. Unga Qorajon dòst tutinadi va akalariga qarashi bòlgan kurashda unga yordam beradi. Doston yaxshilik bilan yakunladi. Dostondagi e'tiborni tortadigan yana bir jihat bu sòz òyinlari, qochirimlardan kòp qòllanilganidir. Uni òqish mobaynida ba'zan beixtiyor

kulib yuborishingiz yoki aksincha ba'zi òrinlarda qahramonlar taqdiridan yig'lab yuborishingiz mumkin. Bu esa

sizni kitobsevarligingizdan hamda qahramonlar hayotiga befarq emasligingizdan dalolat beradi.

“Xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo`lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti”- deydi hurmatli birinchi presidentimiz Islom Karimov<sup>2</sup>. Darhaqiqat badiiy merosimiz juda boy va unda turli tuman asarlar shu jumladan, xalq o'g'zaki ijodi namunalari òrin egallagan. Bunday asarlar ichida Alpomish ham beqiyos qiymatga ega. U orqali biz òtmishga sayohat qilishimiz va qadimgi adabiyot namunalaridan bahramand bòlishimiz mumkin.

#### **References:**

<sup>1</sup>Alpomish dostonidan parcha 2010 yil 408 bet

<sup>2</sup>I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ròyhati:**

1. " Alpomish " dostoni 2010 yil
2. Oyina.uz sayti 2021 yil avgust
3. Ziyouz.com sayti
4. Library.SamDu.uz sayti